XALQ DEPUTATLARI MIRZAOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 10-fevral VII-5-12-9-125-K/25 Mirzaobod tumani

Mirzaobod tumanidagi nomsiz ko‘chalarga yangi nom berish to‘g‘risida

Mirzaobod tumani mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi mavjud qonunga zid ko‘cha nomlarini qayta nomlash, bir-birini takrorlovchi ko‘cha nomlarini o‘zgartirish hamda nomsiz ko‘chalarga yangi nom berish to‘g‘risida tushgan takliflar ko‘rib chiqildi va mazkur takliflar atroflicha muhokama qilinib, ko‘chalarni qayta nomlash hamda tumandagi nomsiz ko‘chalarga berilgan yangi nomlarni tasdiqlash to‘g‘risida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan taqdim etilgan xulosa hamda O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori hamda tuman komissiyasi takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Mirzaobod tumani hududidagi nomsiz ko‘chalarga yangi nom berish bo‘yicha Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Ekspert komissiya deb ataladi) xulosasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ekspert komissiyasining Mirzaobod tumani hududidagi nomsiz ko‘chalarga nom berish bo‘yicha takliflari ma’qullansin.

3. Mirzaobod tumanida yangi nom berilgan ko‘chalar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman statistika bo‘limi (E.Nishonov), Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasining Mirzaobod tumani filiali (Sh.Abdullayev), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (A.Nosirov) hamda tegishli mutasaddi va davlat organlariga amaldagi tartibda nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Xolmatov) nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan hududlarda aholining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

6. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha tuman komissiyasiga nom berilgan va nomi o‘zgartirilgan ko‘chalarga ularning nomlari yozilgan metall ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalar bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

7. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (M.Mavlonov), mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari hamda xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga hududlardagi yangi nom berilgan ko‘chalarga chiqqan holda aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borish tavsiya etilsin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati (B.Djaniqulov)ga ushbu qaror mazmun mohiyatini ijtimoiy tarmoqda yoritish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi, ekologiya va qurilish, kommunal soha masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Norkuziyev)ga va qaror ijrosini ta’minlash geografik ob’ektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi (S.Kenjayev) zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi

ABDURAZAKOVA
FERUZA
KARAMATULLAYEVNA

Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashining
2025-yil 10-fevraldagi
VII-5-12-9-125-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Mirzaobod tumanida yangi nom berilgan ko‘chalar
RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyai tomonidan taklif etilayotgan nom	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Berk ko`cha	Navro‘z MFY	Nomsiz	Mustaqillik-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Berk ko`cha	Navro‘z MFY	Nomsiz	Mustaqillik-3	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Berk ko`cha	Bog‘iston MFY	Nomsiz	Zulfiya-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Berk ko`cha	Navro‘z MFY	Nomsiz	Uchyog‘och-3	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Berk ko`cha	Toshkent MFY	Nomsiz	Umid-5	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	Berk ko`cha	Navro‘z MFY	Nomsiz	Shabnam-2	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	Berk ko`cha	Bahoriston MFY	Nomsiz	Obodlik	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	Berk ko`cha	Bog‘iston MFY	Nomsiz	Sulola	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq

					koʻrsatilgan	
9.	Berk ko`cha	Doʻngariq MFY	Nomsiz	Soʻlimgoʻsha-2	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq